**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**ISMANJANOV AKBAR ANVARJANOVICH**

# AXBOROTNING FUQAROVIY-HUQUQIY MAQOMI

12.00.03 — Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi**
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**UDK: 347.214.13**

# Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
# Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации
# Content of the doctoral (DSc) dissertation abstract

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**ISMANJANOV AKBAR ANVARJANOVICH**

# AXBOROTNING FUQAROVIY-HUQUQIY MAQOMI

12.00.03 — Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi**
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2018.3.DSc/Yu81 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsul.uz) va "ZiyoNet" axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|---|---|
| **Ilmiy maslahatchi:** | **Okyulov Omonboy**<br>O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist,<br>yuridik fanlar doktori, professor |
| **Rasmiy opponentlar:** | **Narziev Otabek Sa’diyevich**<br>yuridik fanlar doktori, professor |
| | **Raimova Nargiza Doroyevna**<br>yuridik fanlar doktori, professor |
| | **Babakulov Zafar Qurbonnazarovich**<br>yuridik fanlar doktori, professor |
| **Yetakchi tashkilot:** | **O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi** |

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/30.12. 2019.Yu.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 19-oktabr soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1295-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar Amir Temur ko‘chasi 35-uy.Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "4" oktabr kuni tarqatildi.
(2024 yil "4" oktabrdagi 55-son raqamli reyestr bayonnomasi).

**I.R. Rustambekov**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

**D.Yu. Xabibullayev**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

**B.K.Xodjayev**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

## KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzuning dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda, savdoni dematerializatsiyasi davrida, axborot munosabatlarining tegishli tomonlari uchun muhim aktivga, va shuningdek tijorat bitimlari predmetiga aylanib bormoqda. Xalqaro maydonda axborotning elektron almashinuvi, uning huquqiy maqomini qayta ko‘rib chiqishga va boshqa axborot obyektlariga nisbatan munosabatini aniqlab olishni talab qilmoqda. Mutlaq huquq himoyasini taqdim etuvchi intellektual mulk obyektlarining huquqiy rejimlari va tijorat siri, garchi axborotlarni aksariyatini qamrab olgan bo‘lsa-da, ularni tartibga solish doirasidan muayyan axborotni tashqarida qoldiradi, ya’ni mualliflik huquqida shakl emas mazmunga qaratilgan, yoki tijorat sirlida nisbiy maxfiylikka ega bo‘lgan axborotni. Barcha obyektlarga egarlik qilish huquqini kafolat etishga qaratilgan, universal mulk huquqi instituti, axborotning dinamik tabiati bilan, mulk huquqiga xos bo‘lgan mutlaqlik bilan nomuvofiqlikka duch kelmoqda. Ta’kidlab o‘tgan muammolar, huquq va amaliyot asosida, umumiy fuqarolik huquqi axborotini huquqiy maqomini aniqlashga va uning mezonlarini belgilashni talab qiladi.

Bu muammoga oid dunyodagi huquqiy rivojga e’tibor qaratsak, axborotga vakolatlarini kengaytirish bilan mulk huquqlari o‘zgartirishi va himoya talablarini yengillashtirish bilan bog‘likdir. O‘z o‘rnida, bu jarayon kvazi-mutlaq huquqlarini va axborotning fuqarolik muomalasini ta’minlash uchun, ochiq axborotni himoya qilishga mo‘ljallangan kontekstga qaratilgan rejimlarini paydo bo‘lishiga olib keldi. Mualliflik huquqi shakl bilan cheklanganligi sababli, axborotni mazmunini himoya qilishga qaratilgan “axborot kontenti” kategoriyasi paydo bo‘ldi. Shu bilan birga, raqamlashgan axborotni fuqaroviy-huquqiy almashinuvi, shu savollar bilan bir qatorda, axborotning yangi turlari, ya’ni “big data”ni huquqiy maqomi, “kompyuter bilan ishlab chiqarilgan obyektlar”ni huquqiy tartibga solishni, genom ma’lumotiga nisbatan huquqiy talablar, ochiq ma’lumotlarni rivojlantirish, onlain tarmoqlarini vositachilik javobgarligi aniqlashtirishni, brauzingda nusxalashni huquqiy oqibatlarini belgilab olishni, “tugab bitish” doktrinasini elektron axborotga nisbatan cheklash masalalarini hal qilish, va boshqa tegishli huquqiy masalalarni yechishni talab qiladi.

Tadqiqotda ko‘tarilgan masalalar muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Fuqarolik huquqining obyekti sifatida axborot masalalari o‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab bugungi kunga qadar ham ilmiy muhokamalar markazida bo‘lib kelmoqda.[1] Huquqiy an’ana o‘lchamida axborotning fuqarolik huquqiy almashinuvi mavzusi Rossiya Federatsiyasining fuqarolik kodeksi misolida axborotni fuqarolik huquqining obyekti sifatida rasmiy e’tirof etilishida prinsipial oldiga siljishlikka ega bo‘ldi. Shu bilan birga, mavzu tizimli yondashuvni va mavjud huquqiy kategoriyalarning bir qismi sifatida axborotning huquqiy maqomi uchun umumiy asosini ishlab chiqishni va uning bo‘shliqlarini to‘liqlashni, shuningdek fuqarolik axborot almashinuvining ta’minlash mexanizmlarini belgilashni talab etadi. Nazariy-huquqiy jihatdan axborotning fuqarolik huquqi va mulk huquqi obyektlari qatori e’tirof etilish tashabbusi MDH davlatlari sivilistlari tomonidan qo‘llab-

[1] Marc Uri Porat, The Information Economy, University of Michigan Press (1977) – 556.

quvvatlandi, biroq qarshi baxshni inobatga olgan holda, uning doktrinal asosini ishlab chiqishni talab qiladi.

Ilg‘or raqamli iqtisodiyot mamlakat rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib hisoblanadi, va “Raqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasida belgilanganday O‘zbekiston Respublikasida dasturiy ustuvorliklardan biri etib belgilangan.[2] Axborot qonunchiligining doimo rivojlanib borayotgani, axborot savdosiga e’tibor qaratganligini tasdiqlaydi. O‘zbekiston Respublikasida elektron tijoratni rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq,[3] O‘zbekiston Respublikasida “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi,[4] O‘zbekiston Respublikasi “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi,[5] O‘zbekiston Respublikasi “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi,[6] O‘zbekiston Respublikasi “Tijorat siri to‘g‘risida”gi[7] qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda aks ettirilgan axborotlashtirish qonunchilik bazasi takomillashtirilmoqda. 2019-yil 17-iyulda O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulkning ayrim turlarini kengaytirilgan himoya qilishni ta’minlovchi Butunjahon intellektual mulk tashkilotining (BIMT) 1996-yil 29-oktyabrdagi BIMTning Mualliflik huquqi bo‘yicha shartnomasi, va 1996-yil 20-dekabrdagi BIMT ijrochilar va fonogrammalar shartnomasi kabi ikkita yangi konvensiyalarga a’zo bo‘ldi. Axborot kodeksi ishlab chiqish bo‘yicha ishlar yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu islohotlarga mos ravishda, axborotning fuqarolik huquqining obyekti va mulk huquqi obyekti sifatida doktrinal masalalariga konseptual aniqlik va yondashuvlardagi birdamligini talab etilmoqda.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Tadqiqot mavzusi 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022 yildagi UP-60-sonli Farmoni,[8] “Fuqarolarning axborot olish va tarqatish erkinligi borasidagi huquqlarini yanada mustahkamlash”ga qaratilgan 89-chi, va ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar qatori 324-chi “axborot sohasini tartibga soluvchi yagona tizimlashtirilgan normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish” maqsadlariga to‘g‘ri keladi. “Fuqarolarning axborot olish va tarqatish erkinligi borasidagi huquqlarini yanada mustahkamlash”ga qaratilgan 89-chi, va ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar qatori 324-chi “axborot sohasini tartibga soluvchi yagona tizimlashtirilgan normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish” maqsadlariga to‘g‘ri keladi. Va uni amalga oshirish mexanizmlari qatori 1. Zamon talablari asosida axborot sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, va 2. Axborot sohasini tartibga solishga

[2] Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil, 5-oktyabrdagi PF-6079-son Farmoniga ilova.

[3] 2016 — 2018-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida elektron tijoratni rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami // 2015-y., 49-son, 612-modda.

[4] O‘zbekiston Respublikasining 11.12.2003-yildagi 560-II-sonli “Axborotlashtirish to‘g‘risida"gi” qonuni //

[5] O’zbekiston Respublikasining “Elektron hujjat aylanishi tug‘risida”gi qonini, 5 moddasi. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2004-y., 20-son, 230-modda.

[6] O’zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to’g’risida”gi 2004-yil 29-aprel 613-II-sonli Qonuni // O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2014. y. 37-son, 463-modda.

[7] O’zbekiston Respublikasining 2014-yil 11-sentyabrdagi “Tijorat sirlari to‘g‘risida”gi qonuni / / O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2014. y. 37-son, 463-modda.

[8] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // QMMB №06/22/60/0082

qaratilgan, mavjud qonunlarni O‘zbekiston Respublikasi axborot kodeksi shaklida unifikatsiya qilish qo‘yilgan maqsadiga to‘g‘ri keladi.

Shuningdek, dissertatsiya ishi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonidagi “fuqarolik qonunchiligi normalarini tizimlashtirish va unifikatsiya qilish, ularning eng namunali xorijiy amaliyotlar bilan uyg‘unligini ta’minlash, shuningdek, ushbu sohada ilg‘or xalqaro standartlarni implementatsiya qilish” bo‘yicha belgilangan maqsadlarga javob beradi.[9]

Dissertatsiya ishi hamda O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasida II. “Asosiy fuqaroviy huquqiy institutlarni takomillashtirish” yo‘nalishida, “mulkdor huquqlarini kengaytirish yo‘li bilan ashyoviy huquqlar institutini kuchaytirish” to‘g‘risidagi 7-bandiga to‘g‘ri keladi va, “zamonaviy sharoitlarda talab yuqori bo‘lgan fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishning innovatsion shakllari va tamoyillarini joriy etish”, xususan, shaxsi ko‘rsatilmagan ma’lumotlarning sezilarli massivlarini (“big data”) yig‘ish va qayta ishlashni huquqiy tartibga solish, elektron tijoratdan foydalanish, elektron maydonchalar orqali xaridlarni amalga oshirish bo‘yicha imkoniyatlarni kengaytirish haqidagi IV yo‘nalishiga to‘g‘ri keladi.[10] Axborotni himoya qilishning huquqiy asoslarini mustahkamlash va axborotlarning fuqarolik muomalasiga oid huquqiy asosini yaratish, O‘zbekistonda axborot sohasining rivojlanishini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga yordam beradi.

**Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.** Dissertatsiyada axborotni huquqiy tartibga solish bo‘yicha eng ilg‘or xalqaro tadqiqotlar qo‘llanildi, shuningdek qo‘yidagi tadqiqotchilar muallifligida: Branskomp A., Gasser U., Drui D., Edvards L., Vaelde Sh., Vunderligx J., Lipton J., Porat M., Rodjers K. Lessig L., Kingston V., Rid K., Semuelson P., Zegx G., Myurrey A., Lloyd Ya., Barlou D.P., Meyer T., Rouland D., Salsburri S., Maziotti D. kabi va boshqalar.[11] Axborotning fuqarolik — huquqiy maqomi bo‘yicha xalqaro universitetlardagi yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlarida tadqiqotlar kuzatilib tadqiq etildi, jumladan Stenford huquq fakultetidagi internet va jamiyat markazi, Garvard universitetida Berkman Klein Internet va jamiyat markazi, Oksford internet instituti, Kembrij universiteti qoshidagi Intellektual mulk va axborot huquqi markazi, London Qirolicha Meri universiteti qoshidagi Media va telekommunikatsiyalar huquq

[9] O’zbekiston Respublikasining Prezidentining “Fuqarolik qonunchiligi takomillashtirish chora-tadbirlar tug‘risida”gi 2019-yil 5-apreldagi 5464-son Farmoyishi // QHMMB, 2019-y., 2891-son, 1-modda.

[10] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi F-5464-sonli "O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" farmoyishiga 1-ilova "O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi".

[11] Jacqueline D. Lipton, Information Property: Rights and Responsibilities, Florida Law Review, Vol. 56, No. 1, pp. 135-194; Anne W. Branscomp. Who owns the information? BasicBooks. NY, 1994. p. 183; Lawrence Lessig. The future of ideas. Vintage books. NY, 2006. p. 355; Gene Wunderlich, Annuals of the American Academy of Political and Social Science, Property Rights and Information, Vol 412, Issue 1, 1974 p., William Kingston, Beyond Intellectual Property: Matching Information Protection to Innovation, Edward Elgar, 2010 p.256; Herbert Zech, Information as Property, JIPITEC 6 (3) 2015, 192; Pamela Samuelson, Information as Property: Do Ruckelshaus and Carpenter Signal a Changing Direction in Intellectual Property Law?, 38 Cath. U. L. Rev. 365 (1989) ; Andrew Murray, Information Technology Law (OUP 2013) p.53-83, Ian J. Lloyd. Information Technology Law, OUP 2011; Lilian Edwards and Charlotte Waelde, Law and the Internet, HART Publishing 2009, Chris Reed, Internet Law, Text and Materials, CUP, 2004; Kevin M Rogers, The Internet and the Law, 2011.

instituti, KU Leuven universitetidagi IT va IP huquqi markazi (CITIP) va boshqalarda.

**Muammoning o‘rganganlik darajasi.** Axborot fuqarolik huquqi obyekti sifatida bir guruh MDH mamlakatlar tadqiqotchilari orasida ilmiy izlanishlar mavzusi bo‘lgan. Bunday tadqiqotchilar qatorida Teretshenko L.K., Gorodov O.A., Gayurov Sh.K., Rassolov M.M., Sitnikov A.L., Tumanova L.V., Dozortsev V.A., Nasonova E.N., Volkov Yu.V., Kovaleva N.N., Kopilov V.A., Kolines A. Vengerov A.B., Shestobitov, A.E., Snitnikov, A.A., Sidorova, O.Yu., Gaynullina, Z.F., Bogdanov, V.M., Tsherbak, N.V va boshqalar.[12] Milliy yurisprudentsiyada, fuqarolik huquqida axborotni o‘rnini O‘zbekistonda Okyulov O., Toshev B., Gulyamov S.S., Rustambekov R.I., Xodjaev B.K., Imomov N.F., Mexmonov K.M., Xolmuminov J.T., Narmatov N.S., Kuldoshev N.A., Xusanov O.T., Baratov N.X., Ruziev R.J., Choriev M.Sh., Nasriev I., Nugmanov N.A., Safoeva S.M., Raimova N.D., Agzamova M.B. kabi yetakchi sivilistlar tomonidan tadqiq etilgan.[13] Milliy tadqiqodchilarni axborotning huquqiy maqomiga oid savollari axborotning huquqiy tabiati va xususiyatlarini aniqlashida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Xalqaro tadqiqotchilarni fikir-mulohazalari axborotni tartibga solish huquqiy modellari va yondashuvlarini aniqlashda muhim rol o‘ynadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog’liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining tadqiqot rejasiga kiritilgan bo‘lib, "O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksini takomillashtirish va tatbiq qilish

[12] Терещenko L.K. Informatsiya kak obyekt grajdanskix prav // Avtorskoye pravo XXI vek: Sbornik nauchnyh statey. M.: MFGS, RAP, 2010. S. 35-46 – 0,6 p.l., Gorodov O.A. Informatsiya kak obyekt grajdanskix prav. // Pravovedeniye. – 2001. – № 5., Gayurov Sh.K. Znacheniye prinsipa otkrытosti, dostupnosti informatsii i svoboda yee obmena v grajdanskom obщestve// Izvestiya AN RT. Seriya: filosofiya i pravo. Dushanbe, 2009. №1.- S. 173, Rassolov M.M. Informatsionnoye pravo: Uch. pos. M., 1999. s.47. Sitnikov A.L., Tumanova L.V. Obespecheniye i zashita prav na informatsiyu. M., 2001. s.118., Dozorsev V. A. Ponyatiye isklyuchitelnogo prava// Problemы sovremennogo grajdanskogo prava: Sb. statey. M., 2000. S. 303, 313., Nasonova Ye.N. Informatsiya kak obyekt grajdanskogo prava: Dis.kand.yurid.nauk. M., 2002. S. 13.23 s., Volkov Yu.V. Subyekty telekommunikatsionnogo prava. Avtoref. soisk.st. k.yu.n. UGYUA. Yekaterinburg. 2007 g. — 25 s., Kovaleva N.N. Informatsionnoye pravo Rossii: ucheb. posobiye. — M., 2007.-s.39, Kopylov, V.A. O modeli grajdanskogo oborota informatsii// Jurnal Rossiyskogo prava №9 1999., Kodines A., Informatsiya kak obyekt grajdanskix prav: Konsepsiya, metodologiya, pravovaya priroda. // Pravo Ukrainy. 2015, №1, c. 107-115., Vengerov A.B. Pravo na informatsiyu v usloviyax avtomatizatsii upravleniya. – M., 1978., Shestobitov, A.Ye. Grajdansko-pravovoye regulirovaniye obyazatelstv po peredache informatsii: avtoref. diss. . kand. yurid. nauk. M., 1985., Snytnikov, A.A. Informatsiya kak obyekt grajdanskix pravootnosheniy: avtoref. diss. kand. yurid. nauk. SPb. 2000. -26s., Sidorova, O.Yu. Informatsiya kak obyekt absolyutnyh i otnositelnyx grajdanskih pravootnosheniy: avtoref. dis. . kand. yurid. nauk. Volgograd, 2003. — 30 s., Gaynullina, Z.F. Pravovoye obespecheniye prav i zakonnyh interesov obladateley neobshedostupnoy informatsii (kommercheskaya tayna, nou-xau): dis. kand. yurid. nauk. M., 1998. — 165s., Bogdanov, V.M. Informatsiya kak obyekt grajdanskix prav: diss. . kand. yurid. nauk. Yekaterinburg, 2005. — 187 s., Sherbak, N.V. Informatsiya kak obyekt grajdansko-pravovogo regulirovaniya//Zakonodatelstvo (Pravo dlya biznesa). 2004. — № 7. -S.80.

[13] J.T. Xolmuminov, Narmatov N.S., Kuldoshev N.A., Grajdanskoye i Semeynoye pravo, Izdatelskiy Sentr "Akademiya" 2008 — s.81; Zokirov I.B., Xusanov O.T., Baratov N.X., Imomov N.F. Grajdanskoye pravo, 3e izd., ILM ZIYO, 2012-s.57; Ruziyev R.J., Choriyev M.Sh., Xodjayev Ye.K., Sobstvennost i yee pravovoye i dogovornoye prioreteniye v predprinimatelskoy deyatelnosti, Navruz 2014-s.41; Ismanjanov A. Pravovye osnovy kommercheskogo obrasheniya informatsionnyh produktov v seti Internet: Dis. …kand. yurid. nauk. – T., 2006; Nasriyev I. Shaxsiy nomulkiy huquqlarni amalga oshirish va muxofaza qilishning fuqarolik huquqiy muammolari: yurid. fan. dokt. dis. ... Avtoref. –T., 2006; Oqyulov O. Intellektual mulk huquqi. – T., 2005; Oqyulov O. Intellektual mulk huquqiy maqomining nazariy va amaliy muammolari. – T., 2004; Toshev B. Axborot texnologiyalari va mualliflik huquqi.– T., 2004; Toshev B. Axborot texnologiyalari va mualliflik huquqi. – T., 2004; Safoyeva S.M. Intellektual mulk obyektlaridan tijorat muomalasida foydalanishning huquqiy shakllari. O‘quv qo‘llanma. – T., 2009.

muammolari" (2017-2024) tadqiqot o‘tkazish ustuvor yo‘nalishlari doirasida amalga oshirildi.

**Tadqiqotning maqsadi** axborotning fuqarolik huquqiy maqomini aniqlash va uning maxsus turlari bilan o‘zaro nisbatini belgilash va uyg‘unlashtirish, shuningdek uning fuqarolik almashinuvining optimal mexanizmini aniqlash va shu qatorda axborotning onlayn tarmoqlarda huquq egasining manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq huquqiy yechimlar topishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Huquqiy himoyada turli cheklovlarga ega bo‘lgan intellektual mulki va tijorat sirlarining ayrim turlari bilan cheklanmasdan, kengroq toifadagi axborot turlarini himoya qilishga qaratilgan axborotning fuqarolik huquqiy kategoriyasini ishlab chiqish. Mualliflik huquqi himoyasi axborotni ma’lum taqdim etilish shakli bilan cheklangan bo‘lib, mulk huquqi esa individual obyektlarni himoya qilgani qaratilgani uchun, axborotni king qamrovli himoya qila olishmaydi. Shu bilan birga mulk huquqi axborotga vaqt bilan cheklanmagan mutlaq himoya taqdim etishi mumkin, mulkni qaytarishni (vindikatsion) va foydalanishdan barcha cheklovlarni olib tashlash (negator) talablari orqali. Mulk huquqlarini tan olish uchun asos qatori sarflangan mehnat standarti bo‘yicha Loke nazariyasi,[14] va virtual obyektlarga huquqlarni tan olgan yangi keyslarni asosida. Bunga huquqqa analogiya qatori “ma’lumotlar bazalarini huquqiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Yevropa Ittifoqi Qonuni modeliga ko‘ra sarflangan mehnat yoki kiritilgan investitsiya (kapital yoki inson salohiyati) qo‘llanilishini ko‘rib chiqish;[15]

Axborotni yaratishda keng doiradagi axborotdan ajratish huquqiy ahamiyatini o‘rganib chiqish. Fuqarolik huquqi axborotlarini ayrim turlari (davlat ma’lumotlaridan tashqari) shaxsiy mulkka aylantirilishi asoslarini o‘rganib chiqish. Buni fuqarolik huquqi obyektlariga huquq orttirish yo‘llari bilan bog‘lash. Axborotning egasi va foydalanuvchisi, shuningdek birinchi va keyingi egasi orasidagi munosabatlarini aniqlash;

Axborotga nisbatan huquq bir vaqtni o‘zida tijorat siri bo‘lgan obyektlardan tashqari mavjud bo‘lmasligi haqidagi taniqli bayonotni sinash. Himoyalangan axborotni faqat tijorat siri bilan cheklanmasdan (tijorat siri rejimi axborotni fuqarolik muomalasini cheklanganligi tufayli), keng doiradagi fuqaroviy huquqiy axborotning uni rejimidan ajratish yo‘llarini izlab chiqish. Bu maxfiy axborotning almashinuvi axborotlarning uning aniq ravishda oshkor bo‘lishi vaziyatiga olib kelishini ta’kidlaydigan “Muqarrar oshkor etilish” doktrinasi bilan bog‘lash;

Axborotning himoya qilishini mutlaq maxfiylikdan ko‘ra, nisbiy va kontekstga asoslangan himoyasi yondashuvi qo‘llash imkoniyatini o‘rganib chiqish. “Ishonch huquqi” modeli bo‘yicha maxfiylik majburiyatini o‘z ichiga olgan holatlarga e’tibor qaratgan holda “Law of Confidence” himoya qilish yo‘llarini ishlab chiqish;

Mualliflik huquqi himoyasini ko‘llash uchun originallik darajasi yetarli bo‘lmagan, mashhurligi ortib borayotgan kichik media shakldagi axborotga, axborot kontenti himoyasini ko‘llashni tadqiq etish. Bu obyektlarni shakli bo‘yicha emas, balki mazmuni bo‘yicha, himoya etishga qaratilgan. Axborotni shakli o‘zgargan bo‘lsa ham,

[14] John Locke (1960) Second Treatise of Government, Sect.27.

[15] Directive on the Legal Protection of Databases of 11 March 1996, L77, 1996-03-07, pp.20-28.

mazmuni bo‘yicha himoya qilish imkoniyatini o‘rganib chiqish. Ilg‘or tajriba asosida axborot kontentini ta’rifini berish va qonunchilikka tatbiq etish yo‘llarini ishlab chiqish. Katta ma’lumotlar “Big Data” huquqiy ta’rifini berish va uning tabiatini inobatga olgan holda, uning tartibga solishni tegishli huquqiy rejimini qo‘llash;

Axborotning huquqiy tartibga solish an’anaviy usullari orqali, fuqarolik huquq obyekti sifatida joriy etish yo‘llarini o‘rganish, shuningdek fuqarolik muomalaga elektron obyektlarni tatbiq etishda muvaffaqiyatga erishgan Yevropa Ittifoqi qonunchiligi modeliga ko‘ra, fuqarolik qonunga “tovar” universal ta’rifi orqali muomalaga kiritish yo‘lini o‘rganib chiqish;

Axborotning, uning maxsus sifatlarini inobatga olgan holda va ruxsatsiz tarqatishini hal etish uchun, uning fuqarolik muomalasiga kiritishga eng munosib huquqiy rejimni aniqlash. Axborotning sifatini, xususan, ko‘paytiruvchanligini hisobga olgan holda, asl egasini himoya qilish xususiyati inobatga olib, oldi-sotdidan ko‘ra litsenziya shartnomasini axborotning fuqarolik muomalasini ta’minlashining mos mexanizmi sifatida ko‘rib chiqish;

Himoyadan istisnolar oqibatlarini tahlil etish, xususan, muallifning roziligisiz mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni obyektlarining qayta sotish taqdirda va haq to‘lamagan holda,[16,17] qonuniy nashr etilgan obyektlaridan foydalanishini imkonini beruvchi huquqni “tugab bitishi” (doctrine of exhaustion) yoki “birinchi sotish” doktrinasini (first sale doctrine) an’anaviy obyektlar bilan bog‘lovchi amaliyotga muvofiq, bu huquq obyektlarini electron obyektlarga nisbatan cheklashni o‘rganib chiqish;

Internet tarmog‘ida axborotni ko‘rish foydalanuvchining axborot tizimi tomonidan avtomatik ravishda ma’lumot nusxalarini yaratganiga qaramasdan, xuddi real maydonda huquqbuzarlik hisoblanmaganday, buni virtual makonda ham istisno kiritish kerak. Bu orqali oddiy foydalanuvchini va huquqbuzarlikka aloqasi yo‘q bo‘lgan axborot vositachi javobgarligini oldini olish mumkin. Bu avtomatik ravishda ishlagan axborot tizimlar — brauzerlar, elektron qidiruv tizimlariga (search engine), va boshqa axborot xizmarlarga taalluqli;

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksida shartnomalar tuzish talablariga rioya qilish uchun, axborot produktlarini almashinuvini ta’minlash maqsadida, internetda tuzilgan shartnomalarni o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rib chiqish lozim. Bu esa fuqaroviy qonunchilikni oferta va aksept an’anaviy tushunchalari internet orqali amalga oshiriladigan bitimlar talabiga javob berishini aniqlab chiqishni talab qiladi. Shu bilan birga dunyoning yetakchi axborot iqtisodiyotlarining ushbu masalani huquqiy tartibga solish bilan bog‘liq yondashuvini o‘rganib chiqish maqsadi qo‘yiladi;

Internetda axborot – axborot vositachilar orqali uzatilgani bois, mualliflik huquqining va axborotga nisbatan huquqni buzilishini provayderlar orqali oldini olish maqsadga muvofiqdir. Ushbu jarayonni ta’minlash uchun obyektiv qoidalarni yaratish uchun “Safe Harbour” va “Mere Conduit” kabi ilg‘or doktrinalarini ko‘rib chiqish

[16] O’zbekiston Respublikasining 2006-yil 20-iyulda qabul qilingan “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to’g’risida”gi O‘RQ-42-son Qonuni // O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2006-yil, 28-29-son, 260-modda, 25 moddasi..

[17] O’zbekiston Respublikasining 1994-yil 6-maydagi 1060-XII sondagi “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to’g’risida”gi qonuni // Oliy Kengash Axborotnomasi // 1994-y., 5-son, 136 modda, 13 moddasida.

nazarda tutilgan. Ushbu doktrinalarga muvofiq, axborot vositachilari kontentni monitoringi yoki tahlilini ko‘rmasa, javobgarlikdan ozod etilish nazarda tutilgan. Elektron media tarmoqlarda axborotga huquqni buzilishini, axborot vositachining tomonidan huquq buzishini oldini olishidan bosh tortishiga qarshi, “Irodali inobatga olmaslik” doktrinasini qo‘llanilishini ko‘rib chiqish zarur;

Axborot kontenti oqimi bilan onlayn video almashinuv tarmoqlarining iqtisodiy modellari axborotning huquqiy himoyasiga ta’sirini tadqiq etish lozim. YouTube asosiy video kontent almashinuv tarmogi bo‘lib borayotgani uchun, unda qo‘llanilgan himoya usulining ishlashi, huquq egasiga va foydalanuvchilarga nisbatan oqibatlarini, va ular ko‘llagan himoya usulini huquqiy himoya usullariga muvofiqligini o’rganib chiqish lozim. Kontentni tarmoqda huquq egasini ruxsatisiz joylashtirishga qarshi chorasini maqsadga muvofiqligini, va qanchalik taraflarni manfaatlariga to‘g‘ri kelishini aniqlash maqsad etib qo‘yiladi;

Yangi avlod axborot obyektlari, ya’ni kompyuter generativ obyektlar (CGW), generativ dasturiy ta’minot yoki sun’iy intellekt (AI) yordamida yaratilgan obyektlar, ularga nisbatan fuqarolik huquqining obyekti sifatida egalik qiluvchi mezonni belgilashni talab qiladi. Shu bilan birga, bu mualliflik huquqi tomonidan aniqlik kiritishni talab etadi va shu bois ushbu tadqiqotni vazifalaridan biri etib belgilangan. Buyuk Britaniyaning muvozanatli yondashuvini qo‘llash yo‘lini o‘rganib chiqish va bu obyekt generatsiyasini tayyorlash uchun zarur choralarni ko‘rgan shaxsga mualliflik huquqini tayinlash yo‘lini taklif etadi. Bu mualliflik huquqiga ega bo‘lmagan asarlarning paydo bo‘lishini bartaraf etishga qaratilgan. Biroq, originallik standartiga javob berish uchun yetarli bo‘lmagan asarlar uchun kvazi mulk huquqi rejimi yechim olib kelishi mumkin;

Genomik ma’lumotlar ko‘rinishida taqdim etilgan yangi axborot turlarini himoya qilish imkoniyatini tadqiq etish va bu ma’lumotlardan maxfiylikni himoya qilishni qonun bilan bog‘liq holda foydalanish talablarini belgilash maqsadda tutilgan. Shu qatorda “Big Data” ya’ni katta ma’lumotlar maqomini aniqlab ular bilan fuqarolik munosabatlarni xususiyatini belgilash nazarda tutilgan. Ommaviy axborot platformalarida fuqarolik axborot almashinuvi turkumidagi ochiq ma’lumotlarni standartlarga ko‘ra egasiga bevosita emas, balki bilvosita foyda olib kelish orqali fuqarolik munosabatga kiritishni o‘rganib chiqish maqsad etib qo‘yiladi.

**Tadqiqotning obyekti** fuqarolik muomalasiga axborotni kirib kelishi, ya’ni axborotni yaratish, undan foydalanish va uzatish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlardan tashkil topadi. Tadqiqotning empirik asoslari axborotga huquqlarni ko‘rib chiqqan, provayderlar tomonidan uzatiladigan axborot bilan bog‘liq javobgarligi bo‘yicha sud qarorlari, shuningdek, xususiy-huquqiy turdagi axborot obyektlarini, shu jumladan, xalqaro elektron media platformalarini o‘z ichiga olgan fuqarolik bitimlar bo‘yicha tegishli muhokamalarini sud amaliyotiga asoslanadi.

**Tadqiqotning predmeti** axborotning fuqarolik muomalasini huquqiy ta’riflash va tartibga solish borasidagi yondashuvlar, qoidalar va muammolar bo‘lib chiqadi. Tadqiqotning empirik asosini axborot provayderlarining ular tomonidan uzatilgan axborotga nisbatan javobgarligi to‘g‘risidagi sud qarorlari, shuningdek fuqarolik-huquqiy bitimlar, shu jumladan xususiy-huquqiy turdagi axborot obyektlari bo‘yicha sud muhokamalardagi topilmalari va qarorlari, xalqaro elektron media platformalarida

uchraydiganlar bilan birga.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda fuqarolik huquqiy holatlarini tizimli tahlili, mantiqiy (analiz, sintez), qiyosiy tahlil, qiyosiy-huquqiy, formal huquqiy va fuqarolik ishlarida tahliliy tadqiq qilish usullaridan foydalanildi. Doktrinal tadqiqot nazariyalar tahlilida o‘z aksini topgan va takliflarda ifodalangan amaliy yondashuv bilan birlashtiriladi. Kontekstdagi huquq usuli yoki, ijtimoiy-huquqiy tahlil taklif etilgan standartlarini ko‘llashni oqibatlarini talqil qilishda ishlatilgan. Empirik usuli raqamli axborot bo‘yicha elektron media platformalarida tajribalarni o‘rganishda qo‘llaniladi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi**:

O‘zbekiston Respublikasida ochiq ma’lumotlar sohasini rivojlantirishni sababli asosiy maqsadli ko‘rsatkichlar va indikatorlarga erishishga asoslangan holda tashkil etish asoslantirilgan;

“ma’lumotlar sifati va talabi” monitoringi sifatida talab qilingan ma’lumotlarda jamiyat uchun eng katta qiziqish va ahamiyatga ega bo‘lgan axborotni tushunish asoslantirilgan;

ochiq ma’lumotlar bo‘yicha internet hamjamiyatni shakllantirish va internet jahon axborot tarmog‘ida ochiq ma’lumotlardan foydalangan holda faoliyat yuritayotgan dasturiy mahsulotlar va xizmatlar bozorini yaratish va takomillashtirish zarurligi asoslantirilgan;

genomga oid axborotga ishlov berish shart-sharoitlari uning yo‘qotilishi, buzilishi va undan ruxsatsiz foydalanilishi, xuddi shuningdek qonunga xilof ravishda va (yoki) bexosdan foydalanilishi, va (yoki) genomga oid axborot mavjud bo‘lgan elektron axborot resurslarga ta’sir ko‘rsatilishi imkoniyatini bartaraf etish asoslantirilgan;

genomga oid axborotga ishlov berish shartlariga ko’ra faqat olingan ma’lumotlarning muhofaza qilinishini ta’minlash bo‘yicha shart-sharoitlar mavjud bo‘lgan taqdirda amalga oshirilishi asoslantirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi, “mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonun, “axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonun, “tijorat sirlari to‘g‘risida”gi qonun va “kompyuter dasturlari va ma’lumotlar bazalari to‘g‘risida”gi qonun, “elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonun, va bir qator boshqa normativ hujjatlarga o‘zgartirish kiritish taklif etiladi. Amaliy nuqtayi nazaridan tadqiqot natijalari va tavsiyalari huquqni muhofaza qilish amaliyotida muhim ahamiyat kasb etuvchi fuqarolik huquqi, mulkiy huquq va tovarlar obyekti sifatida axborotning huquqiy maqomi bo‘yicha munosabatlarni tartibga solishga aniqlik kiritadi. Dissertatsiya tadqiqotining bir qismi sifatida ishlab chiqilgan axborot produktini bosqichma-bosqich yangilashga asoslangan axborotni himoyalash usuli Toshkentdagi xalqaro Vestminster universiteti qoshidagi “InnoWIUT” innovatsiya markazida qo‘llanilmoqda. Axborot produktini oshkor qiluvchini aniqlash imkonini beruvchi, uzatiladigan axborot mahsulotni reyestrini yuritish bilan axborotni bosqichma-bosqich yangilash orqali himoya qilish usuli taklif etiladi. Litsenziya shartnomasida ushbu imkoniyatni axborot foydalanuvchiga bildirish uning ruxsatisiz tarqatilishini oldini olish imkonini beradi. Mazkur usul axborot mahsulotni oshkor qilgan shaxsni aniqlash imkoniyati orqali axborotni huquq egasini ruxsatisiz tarqatishini oldini olish imkonini beradi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi**. Tadqiqotda ilmiy tadqiqotning umumiy

va maxsus usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijalari xalqaro va mahalliy huquq, ilgor davlatlar tajribasi, fuqarolik huquqi va axborot huquqi bo'yicha yetakchi huquqiy amaliyot, xususiy huquqning umume'tirof etilgan normalari, boshqa ishonchli manbalar va ilmiy dalillarga asoslangan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiya qilinib, natijalari mamlakatimiz va xorijiy yetakchi nashrlarda chop etildi. Olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanib, amaliyotga joriy etilgan.

**Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi.**

Axborotning fuqarolik-huquqiy maqomi va fuqarolik-huquqiy axborot bilan munosabatlarda foydalanish va uni muhofaza qilishning huquqiy jihatlarini aniqlash, tartibga solish va hal qilish yo'llari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

O'zbekiston Respublikasida ochiq ma'lumotlar sohasini rivojlantirish asosiy maqsadli ko'rsatkichlar va indikatorlarga erishishga asoslangan holda tashkil etish to'g'risidagi taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida ochiq ma'lumotlar sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 23-dekabrdagi 808-son qarori bilan tasdiqlangan 2021-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida ochiq ma'lumotlar sohasini rivojlantirish konsepsiyasining O'zbekiston Respublikasida ochiq ma'lumotlar sohasidagi joriy holat bo'yicha 2-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yiling 1-mart

12/21-08 sondagi dalolatnomasi). Mazkur taklifni amalga oshirilishi ochiq ma'lumotlar sohasini rivojlanishini aniqlash uchun tegishli ko'rsatkichlar va indikatorlarini belgilashga imkon bergan;

ma'lumotlar sifati va talabi monitoringi sifatida talab qilingan ma'lumotlar jamiyat uchun eng katta qiziqish va ahamiyatga ega bo'lgan axborotni tushunish taklifi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida ochiq ma'lumotlar sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 23-dekabrdagi 808-son qarori bilan tasdiqlangan 2021-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida ochiq ma'lumotlar sohasini rivojlantirish konsepsiyasining ma'lumotlar ochiqligini metodik ko'llab-quvvatlashni ta'minlash bo'yicha 15-bandi va "b" kichik bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yiling 1-mart 12/21-08 sondagi dalolatnomasi); Mazkur taklifni amalga oshirilishi ochiq ma'lumotlarning sifatli ma'lumot talablarini aniqlashga va konsepsiya tomonidan belgilangan chora-tadbirlari orqali sifatli ma'lumotlarni rivojlantirishiga olib kelgan;

ochiq ma'lumotlar bo'yicha hamjamiyatni shakllantirish va internet jahon axborot tarmog'ida ochiq ma'lumotlardan foydalangan holda faoliyat yuritayotgan dasturiy mahsulotlar va xizmatlar bozorini yaratish va takomillashtirish bo'yicha taklifi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida ochiq ma'lumotlar sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 23-dekabrdagi 808-son qarori bilan tasdiqlangan 2021-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida ochiq ma'lumotlar sohasini rivojlantirish konsepsiyasining ochiq ma'lumotlar asosidagi dasturiy mahsulotlar va xizmatlar bozorini yaratish va takomillashtirish bo'yicha 21-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yiling 1-mart 12/21-08 sondagi dalolatnomasi). Mazkur taklifni amalga oshirilishi ochiq ma'lumotlar bo'yicha

hamjamiyatni shakllantirish va Internet jahon axborot tarmog‘ida ochiq ma’lumotlardan foydalangan holda faoliyat yuritayotgan dasturiy mahsulotlar va xizmatlar bozorini yaratish va takomillashtirishga xizmat qilgan;

genomga oid axborotga ishlov berish shart-sharoitlari uning yo‘qotilishi, buzilishi va undan ruxsatsiz foydalanilishi, xuddi shuningdek qonunga xilof ravishda va (yoki) bexosdan foydalanilishi, va (yoki) genomga oid axborot mavjud bo‘lgan elektron axborot resurslarga ta’sir ko‘rsatilishi imkoniyatini istisno etishini ta’minlash talabi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-noyabrdagi “Genom bo‘yicha davlat ro‘yxatiga olish to‘g‘risida”gi O‘RQ-649-sonli Qonuni 23-moddasini genomga oid axborotga ishlov berish va uni muhofaza qilishga doir asosiy talablarni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlis Senatining Sud-hukuk masalalari va Korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 24-mart 2021-yil tomonidan 8-sondagi dalolatnomasi). Mazkur taklifni amalga oshirilishi genomga oid axborot mavjud bo‘lgan elektron axborot resurslarga ta’sir ko‘rsatilishi imkoniyatini bartaraf etishini ta’minlagan;

genomga oid axborotga ishlov berish, faqat olingan ma’lumotlarning muhofaza qilinishini ta’minlash bo‘yicha shart-sharoitlar mavjud bo‘lgan taqdirda amalga oshirilish bo‘yicha qoidasi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-noyabrdagi “Genom bo‘yicha davlat ro‘yxatiga olish to‘g‘risida”gi O‘RQ-649-sonli Qonuni 23-moddasini, genomga oid axborotga ishlov berish va uni muhofaza qilishga doir asosiy talablarni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlis Senatining Sud-hukuk masalalari va Korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 24-mart 2021-yil tomonidan 8-sondagi dalolatnomasi). Mazkur taklifni amalga oshirilishi genomga oid ma’lumotni shart-sharoitlar bo‘lmasa ishlov berishni bartaraf etishni ta’minlagan.

**Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 9ta ilmiy tadbirda, jumladan, 3ta xalqaro va 6ta milliy ilmiy-amaliy konferensiyalarida va ko‘plab ilmiy seminarlarda sinovdan o‘tkazildi. Dissertatsiya tadqiqotining axborotga kvazi-mutlaq huquqi va “ishonch huquqi” qo‘llanilishi xaqida, internetda “tugab bitish” huquqi cheklanishi haqida, kompyuter ishlab chiqqan ob’ektlarga nisbatan huquqlar haqidagi natijalari, Toshkentdagi xalqaro Vestminster universitetdagi (TXVU) huquq bo‘limida “Internet Law” darsini o‘tishda qo‘llanilmoqda.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi**. Umumiy hisobda, tadqiqotda dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini e’lon qilish uchun 19ta ilmiy ish, jumladan, monografiya, xalqaro akademik nashriyotda kitob, 10ta maqola (7ta milliy va 2ta xalqaro jurnal) oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan nashrlarda chop etilgan. International Journal of Legal Studies nashrida, №1(5) 2019 maqolasi xalqaro Index Copernicus ICV: 99.6 Impakt faktori bilan nashr etildi. Dissertatsiyaning kontseptual asoslari yetakchi xalqaro akademik noshir Volters Klyuverning intellektual mulk ensiklopediyasi tomonidan dissertant muallifligida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi**. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 277 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining ahamiyati va dolzarbligi, shuningdek, ilmiy tadqiqotning ustuvor yo‘nalishlari, tadqiqot muammosining o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi, uning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqot usullari, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy etilganligi, tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi, tadqiqotning e’lon qilingan natijalari, shuningdek, ishning hajmi va tuzilishi haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

**Birinchi bob** “**Axborot fuqarolik huquqi va mulk huquqi obyekti qatori**” deb nomlanadi.

Axborotning fuqarolik huquqlarining obyekti sifatida o‘tgan asrdan beri ilmiy muhokamalar markazida bo‘lib kelgan, uning muammolariga turli qarashlarning mavjudligi bilan. Cheklangan yondashuvda faqat intellektual mulk huquqi rejimiga kiruvchi ma’lumotlar, xususan, tijorat sirlari kabi turli xil ma’lumotlarda fuqarolik-huquqiy himoyaga munosib bo‘lgan yondashuv mavjud. Keng yondashuvda, himoyalanadigan axborot tijorat siri bilan cheklanmagan bir qator axborotlarni o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda xalqaro tarmoqda nashrlar, sharhlar ko‘rinishida yangi obyektlar paydo bo‘lmoqda, ular server axborot kontenti turida, elektron shaklda internetga joylashtirilgan tasvirlar, rasmlar, animatsiyalar, kollajlar va boshqalar kabi turli xil media fayllarni ham o‘z ichiga olishi mumkin.[18] Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligining takomillashtirish konsepsiyasida ko‘rsatilgan yig‘ish va qayta ishlashni tartibga solish to‘g‘risida “big data” shaxsi ko‘rsatilmagan ma’lumotlarning sezilarli massivlari bo‘lishi mumkin.[19] “Kompyuter tranzaksiyalar bo‘yicha” umumiy qonunning 37-moddasiga ko‘ra, axborot kontenti– bu axborotdan yoki uning ekvivalentidan foydalanishning oddiy ma’nosida uzatilishga va qabul qilinishga mo‘ljallangan axborotdir.[20] Shu o‘rinda, axborot kontentida mualliflik huquqi kelib chiqqan o‘zgaruvchan shakldan ko‘ra ko‘proq mazmunga e’tibor qaratiladi va shakli o‘zgarganda uning himoyasi murakkablashadi. Agar axborot kontenti insonning ijodiy ishi natijasida yaratilgan bo‘lsa, u mualliflik huquqi bilan himoyalanadi. Biroq, kichik obyektlar holatida ulardagi ijodiy hissa juda kam bo‘lishi mumkin va *’De Minimis’* doktrinasiga ko‘ra, uni mualliflik huquqi bilan himoya qilinishi uchun originalligi darajasi yetarli bo‘lmagan obyektlarni himoya qilish uchun boshqa asoslar talab qilinadi.

Shu bilan birga, fuqarolik huquqi axborotiga nisbatan uni tartibga solishning umumiy talablarini aniqlash mumkin. Bu talablar fuqarolik huquqining dispozitivlikka asoslangan bo‘lib va fuqaroviy huquqi obyektlarini belgilanishining tugallanmaganligi bilan mustahkamlangan. Fuqarolik huquqi muayyan obyektlarni

---

[18] Michael Dashyan, Law of Information Superhighways: Matters of Legal Regulations in the Internet / M.S.Dashyan. – M.: Wolters Kluwer, 2007.-288 p. P.288.

[19] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining O’zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida 2019-yilining 5-apreldagi №R-5464 rakamli Farmoyishi // QHMMB, 2019. № 2891, — 1.

[20] Uniform Computer Information Transactions Act (UCITA), available at http://www.law.upenn.edu/bll/ulc/ulc.hn#ucita

batafsil tartibga solayotgan holati, u boshqa obyektlarni himoyasiz qoldirayotganini anglatishi emas, balki qonun ijrochi uni muayyan obyekt uchun batafsil standartlarni belgilashni maqsadga muvofiq deb hisoblashini nazarda tutadi. Fuqarolik huquqi muomalada cheklangan obyektlarni belgilashi, qolgan obyektlarni cheksiz fuqarolik aylanmasiga ega deb topishga asos beradi.

Axborot – O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 81-moddasida fuqarolik huquqi obyektlari tarkibida belgilab o‘tilgan, va tabiatan nomoddiy obyektlar toifasida kiradi.[21] Shunga qaramasdan, axborotni fuqarolik huquqlari obyektlari tarkibiga alohida kiritish talab qilinadi, xuddi Rossiya Federatsiyasi axborotni fuqarolik huquqlarining maxsus obyektlari deb hisoblab, fuqarolik kodeksining 128-moddasida qo‘llanilganidek.[22] Bu mavjud tijorat siri rejimidan tashqari bo‘lgan keng turdagi axborotga e’tirof etish, va ularga kvazi-mutlaq huquqini e’tirof etish uchun ham zarurdir. L.V. Tumanova va A.A. Snitnikov tomonidan ko‘rsatilgan fuqarolik huquqining obyekti sifatida tan olish uchun axborotning cheklangan standarti uni ochiq domendagi (jamoat mulki) ma’lumotlaridan ajratish imkonini beradi. Axborotni reglamentatsiyasi bir shaxsdan ikkinchi shaxsga universal vorislik tartibida o‘tadigan fuqaroviy-huquqiy axborotlarining amaldagi almashinuvidan kelib chiqqan holda ham zarurdir. Axborot obyektlarining almashinuvi internetda ulkan hajmlarga yetib, ommaviy virtual almashinuv platformalarni asosiy oqimi bilan bog‘liqdir.

Fuqarolik munosabatlari obyekti huquqiy kategoriyasining maqsadi fuqarolik almashinuviga mansub bo‘lgan obyektlarni belgilashda ifodalanadi. Fuqarolik huquqini tartibga solish usuliga ko‘ra, fuqarolik huquqi obyektlarining tugalmasligi, umumiy tovar kategoriyasi shaklidagi axborot muomalasi uchun istiqbollarini ochadi. Tovar kategoriyasi, fuqarolik huquqi obyektlarining almashinuv shakli sifatida foydalangan, maxsus tartib o‘rnatilgan alohida fuqarolik huquqi obyektlariga nisbatan afzallikka egadir. Yevropa Ittifoqi qonuni tovarning ta’rifini qiymatida ifodalangan va tijorat bitimining obyekti bo‘la olishi mezoni o‘rnatilgan, va bu iTunesdagi elektron obyektlarni tijorat bitim predmeti bo‘lishini imkonini yaratgan.[23] Tovar kategoriyasidan foydalanish uchun har bir muayyan huquq obyektini maxsus fuqaroviy huquqiy tartibga solish zaruriyatisiz keng turdagi obyektlarning fuqarolik almashinuvini ta’minlashi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining 31-dekabr 2022-yildagi “Elektron tijorat” to‘g‘risidagi qonunining 3-moddasiga muvofiq elektron tijorat tadbirkorlik faoliyati doirasida axborot tizimlaridan foydalangan holda elektron savdo maydonchasi orqali tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshirilgan oldi-sotdisidir.[24] Biroq, tovar ta’rifi uning qiymati va fuqarolik almashinuvi mumkinligini ko‘rsatgan holda, keng talqin shaklida berilishi lozim. Fuqaroviy huquq tartibga solish usuliga

[21] O’zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi, birinchi qism // O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-y., 2-songa ilova., 189 modda.

[22] Grajdanskiy kodeks Rossiyskoy Federatsii (chast pervaya) ot 30-noyabrya 1994 Sobraniye zakonodatelstva RF. 1994. № 32. St. 3301.

[23] Case 7/68 *Commission v Italy (Art Treasures)* [1968] ECR 423

[24] O’zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to’g’risida”gi 2004-yil 29-aprel 613-II-sonli Qonuni, (yangi tahrir 2015-yil 22-maydagi O’RQ-385-sonli Qonuniga muvofiq. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2004-y., 20 — son, 132-modda.

muvofiq, tovar kategoriyasi yana-da obyekt turiga moslashuvchan himoya qilish imkoniyatlarini taqdim etishi mumkin.

Fuqarolik-huquqiy usulga muvofiq, axborot rejimi, xususan, tijorat sirlarini yoki umuman intellektual mulkni mezonlari bilan cheklanib qolmasdan, yanada moslashuvchan himoya qilish imkoniyatlarini ochishi kerak. "**Ishonch huquqi**" bo'yicha fuqaroviy-huquqiy axborotni himoya qilish mexanizmi, tijorat siri maxfiylik standartlariga qat'iy to'g'ri kelishi zaruriyatisiz, maxfiylikni (kontekstga yo'naltirilgan) nazarda tutgan xollarda axborotni himoyasini ta'minlaydi. Shunga ko'ra axborotni himoya qilish mutlaq emas, balki nisbiy maxfiylik standartiga asoslangan rejimi, maxfiylikni nazarda tutgan sharoitlardan kelib chiqib, ruxsatsiz foydalanish uni topshirgan tomonga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan holda qo'llaniladi. Bunday axborotni himoya qilish tartibi mutlaq emas, balki nisbiy maxfiylikka asoslanib, maxfiylikni nazarda tutgan xollarda ruxsatsiz foydalanish uni topshirgan tarafga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan holda taqdim etiladi *Coco v Clark* keysiga asosan.[25]

Bu, ayniqsa, himoya qilinishi mumkinligini aniqlik bilan oldindan taxmin qilish mumkin bo'lmagan obyektlarga nisbatan xos hisoblanadi. Ushbu himoya usulining alohida afzalligi, ochiq holdagi axborot obyektni himoya qilish bo'lib, va bu uni reklama qilishni va sotishning dastlabki sharti hisoblanadi. Fuqarolik huquqida himoyalanayotgan axborotga yana-da moslashuvchan yondashuv, O'zbekistonda axborot produktlari ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Axborot-nomoddiy obyektdir. Agar axborot moddiy vosita qayd etilgan bo'lsa ham, moddiy vosita axborotning o'zini ifodalamaydi, shuningdek, kim undan xabardor bo'lishi mumkinligini va kim undan foydalanishga vakolatli ekanligini aniqlamaydi. Minglab odamlar bir vaqtning o'zida bir xil axborotga ega bo'lishi mumkin va axborotga nisbatan egalik qilish ma'lumotlarni bilishi va tushunishini anglatadi. Axborotning katta xarajatlarsiz takrorlanuvchanligi sifati axborotning elektron shakli bilan bir necha marta kengaydi.[26] Bu xususiyat axborotning fuqarolik muomalasiga potensial xavf yaratadi va uni tartibga solish chora-tadbirlariga alohida yondashuvni talab qiladi. Axborotni fuqarolik muomalasiga kiritilganda, xarid qiluvchining nusxalar asliga o'xshash bo'lib qoladi. Shu sababdan asl mulkdorning huquqlarini keyingi foydalanuvchilarning huquqlaridan farqlash zarur bo'ladi va **litsenziya shartnomalari** buni amalga oshirish uchun to'g'ri keladigan vositasi hisoblanadi. Oldi-sotdi shartnomasi xaridorlar obyektga to'la huquqlarni, shu jumladan, tarqatish huquqini qo'lga kiritishda noma'qul holatni yuzaga keltiradi. Bu axborotga mulk huquqini qo'llashni cheklaydi, ammo shunga qaramasdan, bu huquq uni asl egasida mavjud bo'lishi mumkin.

D.Drui ma'lumotiga ko'ra, axborotga atributiv egalik qilish bir xil ma'lumotlarga ortiqcha himoya beradi va raqobatni buzish haqidagi da'volarini

[25] *Coco v A.N. Clark (Engineers) Ltd.* [1968] F.C.R. 415

[26] Raymond T. Nimmer, Patricia Ann Krauthaus, Information as a Commodity: New Imperatives of Commercial Law, 55 Law and Contemporary Problems (1992) 105

keltirishi mumkin.[27] Biroq, fuqarolik huquqi obyektlari nuqtayi nazaridan bir necha shaxsda fuqarolik huquqining bir xil obyektining mavjudligi, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 87-moddasiga ko‘ra **umumiy xususiyatlarga ega bo‘lgan obyekt**ning holatini keltirib chiqadi.[28] V.A. Dozorsevga ko‘ra, bir necha shaxsda bir xil huquqning mavjudligi mutlaq emas, balki fuqarolik munosabatlarining obyektini ishga tushirish uchun yetarli monopoliyani yaratadigan kvazi-mutlaq huquqi bo‘lib hisoblanadi. Shunday qilib, mutlaq huquqlar o‘zgardi va kuchsizlangan mutlaq huquqlar sifatida kvalifikatsiya qilish boshlandi.[29]

Mutlaq huquqi, huquq egasiga turli harakatlarni amalga oshirish uchun va shu bilan birga ularni amalga oshirilishini o‘zga shaxslar tomonidan taqiqlashga subyektiv mutlaq huquq beradi.[30] Biroq, ilg‘or xalqaro yondashuviga muvofiq, mualliflik huquqi monopoliyani yaratmaydi, balki faqat asarga nisbatan muayyan harakatlarni bajarish uchun mutlaq huquqlarni keltiradi.[31] Shu munosabat bilan, asarlarni mavjud joylashtirilgan joyda ko‘rish imkonidan foydalanish noqonuniy deb hisoblanmaydi va hamda bu V.A.Dozorsev tomonidan ko‘rsatilgan fuqarolik axboroti himoyasini zaiflashtirish tendensiyasi bilan hamohangdir.

Axborotga egalik qilishni tan olish axborotning fuqarolik muomalasida bo‘lishning muhim sharti hisoblanadi.[32] Axborot har bir inson hayotining asosi ekan, ular bu axborotga egalik qilish huquqiga ega bo‘lishlari kerak. Axborotning muayyan nusxasi sotib oluvchining mulkiga kiritilishi va nomoddiy aktivlar sifatida baholanishi mumkin.[33] O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish” to‘g‘risidagi qonunining 9-moddasida axborot resurslari va axborot tizimlariga nisbatan mulk huquqi tan olingan.[34] Bu esa axborotlarning fuqarolik huquqi va tovarlar obyekti sifatida almashinuviga huquqiy asos yaratadi. Biroq, uning axborot resurslari va tizimlari bilan cheklangani qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi, chunki u ma’lumotlar bazasi kabi kompozit obyektning huquqiy rejimi bilan ifodalanadi. Himoyalanadigan axborotni murakkab huquq obyektlari bilan bog‘lash uning rejimidan axborot produktlarini chiqarib tashlab axborotni muhofaza qilish doirasini cheklaydi. Shuningdek, “user-producer” tushunchasiga ko‘ra murakkab obyektlardan ko‘ra, internetdagi alohida kichik axborot produktlarining ustunligi kuzatiladi.

Axborotning produktlari ikkilamchi qonunchilikda mulk va mulkiy huquq obyekti sifatida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 26-mart 1999-yildagi 137-son qarori 9-bandida “O‘zbekiston Respublikasi axborot resurslarini axborot uzatish tarmog‘i, shu jumladan, internetda tarqatish va

---

[27] Jean Nicolas Druey, Information Cannot be Owned Research Publication No. 2004-05 4/2004, https://cyber.harvard.edu/wg_home/uploads/339/Druey.pdf

[28] O’zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi, birinchi qism // O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-y., 2-songa ilova., 189 modda.

[29] Dozorsev V. A. Ponyatiye isklyuchitelnogo prava // Problemy sovremennogo grajdanskogo prava: Sb. statey. M.: Gorodes, 2000. – 297 s.

[30] Karaxodjayeva D.M., N.M.Akayeva, Sh.R.Yuldasheva, Grajdanskoye i semeynoye pravo, Ilm-Ziye, 2012,-440. s.370

[31] Ian J. Lloid, *Information Technology Law* (8th edn OUP 2017) 322

[32] Rassolov M.M. Informatsionnoye pravo: Uch. pos. M.:Yurait, 1999. s.47.

[33] Kopylov, V.A. O modeli grajdanskogo oborota informatsii // Jurnal Rossiyskogo prava 1999, №9, s.21-27.

[34] O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda qabul qilingan "axborotlashtirish to‘g‘risida"gi 560-II-sonli Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004-yil, № 1-2, 10-modda.

tayyorlash to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida, “axborot produktlari” qayd etiladi.[35] Biroq bu ta’rifni O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunining 9-moddasiga,[36] jumladan, axborot kontentiga nisbatan ham kiritish talab etiladi.

D.Drui axborotni ommaviy axborot ko‘lami bilan ifodalagani tufayli, ommaviy axborot himoyasiga nisbatan ishonchsiz deb topadi. Biroq, Tereshchenko ta’kidlashi bo‘yicha, ochiq bo‘lgan ommaviy axborot cheklov va ma’lum bir shaxs doirasiga ma’lumligida fuqarolik huquqining obyekti sifatida ega.[37] Bu cheklov strukturalari orqali amalga oshirilgan Wolters Klewer axborot produktlarida namoyon bo‘ladi, va unda natija produkti sifatida taqdim etiladi. Shu bilan birgalikda virtual obyektga egalik qilish choralari qo‘llaniladigan holatlar ko‘paymoqda. Xitoy sudi tomonidan da’vogar foydasiga onlayn o‘yinlar virtual obyektlarini tiklash, huquqiy amaliyotda virtual obyektlarga nisbatan mulk huquqlari vositalarini qo‘llash **“restitutsiya”** ramziy ma’nosini bildiradi.[38]

Mulk huquqdan foydalanishga to‘siq yaratuvchi barcha cheklovlarni olib tashlanishini talab qilish orqali (negator da’vo) vaqt bilan cheklanmagan himoyani taklif qilishi mumkin. Axborot ommaviy axborot holatida “Hamma yig‘ib olishi mumkin bo‘lgan ashyolarni mulkka aylantirish” kabi fuqarolik huquqi obyektlariga bo‘lgan huquqni qo‘lga kiritishning o‘ziga xos usullariga mos kelishi mumkin.[39] Axborotlashtirish to‘g‘risidagi qonunning 12-moddasining 4-qismida, ochiq ma’lumotdan xususiy axborot yaratish bo‘yicha qonunida ham aytib o’tilgan.[40] Lekin mazkur qonunning 9-moddasida axborotda mulk huquqi yaratadigan asoslar ichida axborotni birinchi marotaba yaratish mavjud emas, va buni tegishli qoyda bilan ta’minlash zarur. Ochiq ma’lumotlardan tashkil topib va huquqqa ega bo‘lgach, bu ma’lumot yana-da ochiq tarmoqqa uzatilishi mumkin va bu ma’lumotda huquq yo‘qotilishi emas, balki foydalanish huquqi amalga oshishi haqida dalolat beradi.

Okyulov O. haqqoniy ravishda ta’kidlaganidek, axborotga nisbatan uning turlarining rejimi mavjud bo‘lsa ham, umumiy huquqiy rejim mavjud emas.[41] Axborotda ijodiy hissa kam bo‘lgani tufayli mualliflik huquqi himoya qila olmagan chog‘da, *International News Service v Associated Press* sud qarori,[42] taqdim etilgan axborotning qiymati mavjudligidan kelib chiqib, elektron yangiliklar uchun **kvazi-mulk huquqlari**ni e’tirof etgan. Biroq, bu natija shunga o‘xshash holatlarda keyingi

[35] O‘zbekiston Respublikasi 1999-yilning “Axborot resurslarini tayyorlash va ularni ma’lumotlarni uzatish tarmoqlarida, shu jumladan, internetda tarqatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to’g’risida” O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini 137-sonli qarori 26.03.1999-yili kuchga kirgan.

[36] O’zbekiston Respublikasi 1999-yilning “Axborot resurslarini tayyorlash va ularni ma’lumotlarni uzatish tarmoqlarida, shu jumladan, internetda tarqatish tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash to’g’risida” O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini 137-sonli qarori 26.03.1999-yili kuchga kirgan.

[37] Tereshenko L.K. Pravovoy rejim informatsii. Avtor. diss. d.yu.n.: M, 2011-54 s. S.14.

[38] Murray A. Information Technology Law. 2nd edn. – UK.: Oxford University Press, p.102.

[39] O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi, birinchi qism // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-y., 2-songa ilova., 189 modda.

[40] O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda qabul qilingan "Axborotlashtirish to‘g‘risida"gi 560-II-sonli Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004-yil, № 1-2, 10-modda.

[41] Okyulov, O. Pravovoy status intellektualnoy sobstvennosti: dis. … d-ra yurid. nauk / O. Okyulov. – T. : TGYU, 2000. — s.42.

[42] *International News Service v. Associated Press*, 248 U.S. 215 (1918)

sud qarorlari bilan qo‘llab-quvvatlanmadi. “*Cheney Brothers v Doris Silk Corporation*”,[43] sud ishi bo‘yicha qaror, mehnat va ko‘nikmalar tatbiq etilgan har qanday turdagi axborotga huquq berishni noto‘g‘ri deb topdi. Keyingi hollarda, *Victoria Park Racing & Recreations Grounds CO. Ltd v Taylor*[44] keysida ko‘rsatilgandek sud umumiy axborot himoyasidan bosh tortdi.

MDH mamlakatlarining ba’zi sivilistlari ham moddiy obyektlarni, yoki axborot provayderlarni himoya qilishga qaratilganligi tufayli,[45] axborotga egalik qilish mumkin emasligini bildirdilar.[46] Nemis huquqida aniq ifodalangan moddiy va jismoniy huquq obyektlari aniqlash uchun kontinental huquq tizimiga xos an’anaviy yondashuv mavjud. Biroq, boshqa nuqtayi nazardan shu huquqiy rejimini fuqarolik huquqlarining boshqa obyektlariga, birinchi navbatda, qimmatli qog‘ozlarda ifodalangan mulkiy huquqlarga uzaytirishni ta’kidlaydi.[47] Ye.A. Suxanov axborot kabi o‘tkazish mumkin bo‘lgan egalikdagi ko‘char mulkka e’tibor qaratadi.[48]

Bundan tashqari, L.A. Tereshenko egasining huquqlarining klassik triadasi nomoddiy obyektlarga, xususan, foydalanish huquqiga taalluqli emasligini ta’kidlaydi, chunki uni son-sanoqsiz foydalanuvchilar ishlatishi mumkin, shuningdek, tasarruf etish huquqi, axborot begonalashtirilganda, haqdor shaxs undan keyingi foydalanish huquqini yo‘qotmaydi.[49] Bu A.Murrey takidlaganday, axborotning bitmas-tuganmas tabiati, bir axborotni qator foydalanuvchular ishlarishiga imkon beradi. Bu axborotga qvazi huquq bo’lishiga asos beradi, o’z nusxasiga haqqoniy, boshqa foydalanuvchilardan ustun bo’lmagan huquq asosida. Buroq, asl egasi axborotning tasarruf qilish huquqiga ega va modomiki bu axborotga egalik qiladigan boshqa shaxslar yo‘q ekan, dastlabki egasining axborotga toliq mulkchilik huquqi mavjudligi muqarrardir.

O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida mulk huquqi faqatgina ashyoga qaratilmagan. O‘zbekiston Respublikasining “Mulkchilik to‘g‘risida”gi Qonunining 1-moddasiga binoan, mulk huquqi o‘z xohishiga ko‘ra egalik qilishi, foydalanishi va tasarruf etishi mumkin bo‘lgan mol-mulkka taalluqli.[50] Shunday qilib, mulk huquqi ashyoga emas, balki egalik qilishi mumkin bo‘lgan obyektlarga bog‘liqdir. Bunday yondashuv mulkni obyekt sifatida emas, balki shaxs huquqi cheklanmagan miqdordagi shaxslarning majburiyatiga qarshi bo‘lgan munosabatlar sifatida ko‘rib chiqish orqali konseptual jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining “Mulkchilik to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasi 1-bandida ko‘rsatilgan mulkiy huquqlarning turlari cheksiz xususiyatga ega deb topiladi va shu moddaning 2-bandida intellektual mulk bilan birgalikda axborot bilan bog‘liq munosabatlar maxsus qonun bilan tartibga solinishi ko‘rsatilgan. Bu

---

[43] *Cheney Bros. v. Doris Silk Corporation*, 35 F.2d 279 (2d Cir. 1929)

[44] *Victoria Park Racing & Recreations Grounds CO. Ltd v Taylor* (1937) 58 CLR 479

[45] Severin V.A. Pravovoye regulirovaniye informatsionnyx otnosheniy, Yurist, №7, 2001, s.2-10.

[46] Gavrilov O. A. Informatsionno-pravovye sistemy Rossii: Teoretiko-pravovye problemy.-M.: "Yuridicheskaya kniga " i Che-Ro, 1998.

[47] Skryabin S., Вещ kak obyekt grajdanskix prav: Nekotorыe teoreticheskiye problemy / Yurist. — 2004. — № 6.

[48] Grajdanskoye pravo, v 2 t. T.1: uchebnik / Pod red. Ye.A.Suxanova.-2 izdaniye, — M.: BEK, 1998. S.299.

[49] Tereshenko L.A. i dr. Informatsiya i sobstvennost. Zaщita prav sozdateley i polzovateley kompyuternыx programm i baz dannyh.-M., Rossiyskaya yuridicheskaya akademiya pri Ministerstve Yustitsii, 1996

[50] O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida»gi Qonuni 1990 yil 31 oktyabr, № 152-XII — Oliy Majlis jurnali, 1990 yil, № 31-33, bet. 371.

esa O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonuniga tegishli bo‘lib, axborot obyektlarining turlariga qo‘shimchalar kiritishi orqali muvofiqlashtirish mumkin.[51]

Xalqaro yurisprudensiyada mulkiy huquqlarning belgilovchi atributlari bu uchinchi shaxslarning huquqlarini o‘tkazish (begonalashtirish) va istisno qilish qobiliyatlaridir (mutlaq jihat). Biroq, R.J.Smitning fikriga ko‘ra, mulk huquqi xarakteristikasi uchinchi shaxslarning huquqlarini iloji boricha istisno qilishida tatbiq qilinganidek, bunday huquqlarga egasidan kamroq huquqlarga ega bo‘lgan shaxslarga ham qo‘llaniladi.[52] Bu esa axborotga bo‘lgan kvazi-mutlaq huquqning tezisini qo‘llab-quvvatlaydi. Lokeni mehnat nazariyasi sarflangan mehnatga egalik huquqini tan olgan erta nazariya sifatida axborotni himoya qilishning kontseptual asosini tashkil qilishi mumkin. Buni yangi davrda elektron o‘yinlarda sud axborot obyektlariga nisbatan huquqni tan olganligi tasdiqlaydi.[53] Bunda Yevropa Ittifoqining “Ma’lumotlar bazasi” direktivasi modeliga asoslangan mulkiy huquqlarni egallash usuli aks ettirilgan bo‘lib,[54] u ushbu huquqning umumiy axborot obyektlariga kengaytirish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

V.A. Kopilovning ta’kidlashicha, axborotning ma’lum nusxasini qo‘lga kiritgan foydalanuvchi o‘zining axborot olish huquqini amalga oshiradi, ammo uni tarqatishning mutlaq huquqi yo‘qligi tufayli uni fuqarolik muomalasiga kirita olmaydi.[55] Biroq, moddiy obyektlarga murojaat qilmagan holda huquqni “**tugab bitishi” yoki “birinchi sotish” haqidagi doktrinasi bunday axborotni qayta sotishga yo‘l ochadi**. R. Nimmer axborot mulkiga bir vaqtning o‘zida bir necha shaxslar egalik qilishi axborot xususiyati hisoblanishini ta’kidlaydi.[56] Andryu Myurey mulk huquqlaridan farqli o‘laroq, bir nechta shaxsning bir xil ma’lumotlardan foydalanishiga to‘sqinlik qilmaydigan va shuning uchun mulk huquqlaridan ko‘ra boshqa mexanizm qo‘llanilishi kerak bo‘lgan “raqobatlashmaydigan huquqlar” kabi obyektlarga bo‘lgan huquqlarni belgilaydi. Shunday asos axborotga (mutlaq huquqidan farqli) nisbiy huquq yaratishi mumkin.

Shuningdek, D.Drui jami ochiq massa bo‘lgan obyektlarga atributiv egalik huquqi mavludligingga shubha bildirdi.[57] Biroq, O‘zbekistondagi fuqarolik huquqi kodeksining 56-moddasida ochiq ashyolarni yig‘ish orqali huquqlarni qo‘lga kiritish qo‘llab-quvvatlangan. Bunda umumiy massadan ajratib chiqqan axborot nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatdan ham o‘zgarish nazarda tutiladi.[58] Axborot shunday paydo bo‘lgan sifat aytilgan standartlar qatori ishlagan mehnat yoki sarflangan xarajat orqali paydo bo‘ladi.

---

[51] [51] O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda qabul qilingan "Axborotlashtirish to‘g‘risida"gi 560-II-sonli Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2014 yil, №36, 452 modda.

[52] Rojer J. Smith, Property Law (9th edn Pearson 2017) p.4

[53] *Bragg v Linden Research*, Inc. Case analysis https://h2o.law.harvard.edu/cases/4435

[54] Directive of EU on the Legal Protection of Databases of 11 March 1996, L77, 1996-03-07, pp.20-28.

[55] Kopылov, V.A. O modeli grajdanskogo oborota informatsii// Jurnal Rossiyskogo prava 1999, №9, s.21-27.

[56] Raymond T. Nimmer, Patricia Ann Krauthaus, Information as a Commodity: New Imperatives of Commercial Law, 55 Law and Contemporary Problems (1992) 105

[57] Jean Nicolas Druey, Information Cannot be Owned Research Publication No. 2004-05 4/2004, at para 22 <https://cyber.harvard.edu/wg_home/uploads/339/Druey.pdf>

[58] O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi, birinchi qism // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-y., 2-songa ilova., 189 modda.

Axborotga nisbatan huquqni mutlaq huquq deb hisoblash mumkin emas degan nazariya mavjud, chunki o‘zga shaxslar ham mustaqil ravishda olish orqali unga bo‘lgan huquqni da’vo qilishlari mumkin.[59] Bu qoida tijorat sirlariga nisbatan mos kelsa-da, axborotga nisbatan butunlay o‘xshash obyektini mustaqil ravishda tasodifiy yaratish iloji nihoyatda kam yoki deyarli yo‘qdir. Bunga dalil etib o‘xshashlikni tekshirish tizimlari (anti-plagiarism check) faoliyati bilan tasdiqlanadi. Dunyo axboroti katta ko‘lamiga va doim ortib borayotganiga qaramasdan, mustaqil yaratilgan o‘xshash ma’lumotni uchratish haliyam ehtimoli yo‘q.

21-asrda ochiq ma’lumot inklyuzivlikni kengaytirish va innovatsiyalarni rag'batlantirish va ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash uchun katta salohiyatga ega[60] va u bilan hamma foydalanishi kerak. [61] Normativ baza ochiq ma’lumotlar uchun cheklovchi muhitni yaratganligi sababli, litsenziyalar uning ochiqligiga erishish uchun zarur vosita bo’lishi kerak.[62]

Rozilik, anonimlashtirish, maxfiylik va ma'lumotlarni himoya qilish masalalari kabi axloqiy masalalarga taalluqli sensorlar, trekerlar, hisoblagichlar v.b. tarqalishi bilan katta ma’lumotlar (big data) ahamiyat kasb etgan.[63] Katta ma’lumotlarni to’plash va ulardan foydalanishni shaxsiy ma’lumotlar qoidalariga muvofiq qilish uchun echimlar taxalluslash va statistik maqsadlarda ma’lumotlarni qayta ishlashdan istisno qilish bo’lishi mumkin.[64] Biroq, shaxsiy ma’lumotlar bilan asl manbaga qaytish imkonini beruvchi texnologiyaning yuqori hisoblash quvvati bilan anonim ma’lumotlarni qayta identifikatsiya qilish imkoniyati bilan bo’gliq muammo mavjud. Buni ma’lumotlar sub’ktlari uchun ma’lumotlardan foydalanishda yuqoriroq shaffoflik o’rnatish orqali hal qilish mumkin.[65]

Katta ma’lumotlarga asoslangan yaratilgan mahsulotlarga egalik huquqi odatda muallif yoki ijodkorga tegishli bo’lgan intellektual mulk qoidalari bilan tartibga solinadi. Ochiq ma’lumotlar mahsulotiga xususiy mulk olishga ruxsat berish va rag’batlantirish ochiq ma’lumotlarga investitsiya kiritishdan qaytarishga olib kelishi mumkin.[66] Qonuniy huquqlarni himoya qilish ushbu sohadagi texnologik tadqiqotlar va innovatsiyalarga to’sqinlik qilmasligi kerak.[67] Shu sababli, ko’plab domenlardan va bir nechta huquqlar bilan kesishgan holda katta ma’lumotlarni yaratishni hisobga

---

[59] Jean Nicolas Druey, Information Cannot be Owned Research Publication No. 2004-05 4/2004, at para 20 <https://cyber.harvard.edu/wg_home/uploads/339/Druey.pdf>).

[60] Open Data White Paper: Unleashing the Potential, HM Government, Presented to Parliament by the Minister of State for the Cabinet Office and Paymaster General, June 2013, p.5.

[61] (Opendatacharter.net).

[62] Alexandra Giannopoulou, Understanding Open Data Regulation: Analysis of the Licensing Landscape, in B. van Loenen at al. (eds.), Open Data Exposed, Information Technology Law Series 30 p.2.

[63] Pagallo, Ugo. (2017). The Legal Challenges of Big Data:. European Data Protection Law Review. 3. 36-46. 10.21552/edpl/2017/1/7. p.1.

[64] Pagallo, Ugo. (2017). The Legal Challenges of Big Data:. European Data Protection Law Review. 3. 36-46. 10.21552/edpl/2017/1/7. p.10.

[65] Marina Da Bormida, The Big Data World: Benefits, threats and ethical challenges, Ethical Issues in Covert, Security and Surveillance Research Advances in Research Ethics and Integrity, Volume 8, 2022, 71–91. p.76.

[66] Ruth L. Okediji, Government as Owner of Intellectual Property? Considerations for Public Welfare in the Era of Big Data, VAND. J. ENT. & TECH. L., Vol. 18:2:331, p.331.

[67] Pagallo, Ugo. (2017). The Legal Challenges of Big Data:. European Data Protection Law Review. 3. 36-46. 10.21552/edpl/2017/1/7. p.11.

olgan holda, jamoatchilik manfaatlariga ochiq kirishni ta’minlash uchun uni o’zlashtirishni oldini olish kerak.

Genetik ma'lumotlar o’z-o’zidan nomoddiy ob’ektga aylanib borayotganligi sababli, intellektual mulk undan foydalanishda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki yuqori darajadagi huquqiy va texnologik murakkablik va genetik ma’lumotlarga asoslangan ko’plab innovatsiyalar mavjud.[68] Genetik ma’lumotlarning tabiati shaxsiy hayotning individual tushunchalarini shubha ostiga qo’yadi va zamonaviy maxfiylikning o’zaro bog’liqligini ko’rsatadi. Inson genomi loyihasi 2003 yil, bu tadqiqotda genomik ma’lumotlarning matnliligiga erishildi, bu erda tafsilotlar darajasi yuqori darajada oshkor bo’lgan noyob individual profil, bu ma’lumotlarni oshkor qilish nafaqat shaxsiy hayotga, balki genetik jihatdan bog’liq bo’lgan boshqa shaxslarning shaxsiy hayotiga ham fundamental xavf tug’dirdi.[69] Bu bog’langan ma’lumotlar sub’ektlarining o’zaro roziligi bilan genomik ma’lumotlarga ishlov berishni talabni talab qiladi.

**Ikkinchi bob**, “**Axborotning intellektual mulk qatori himoyasi**” deb atalgan. Ma’lumki, mualliflik huquqi asosan axborot obyektlarini himoya qilishga qaratilgan va buni uning himoyasiga olgan obyektlari namoyon qilib turadi. Bunday obyektlarning mavjudligi mualliflik huquqi bilan himoyalanmagan ma’lumotlardan — ma’lumotlar bazasi yaratish mumkinligi haqidagi “Kompyuter dasturlarini EHM va ma’lumotlar bazalari uchun huquqiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasi 2-qismida tasdiqlangan.[70] Shuningdek, asarlarni mazmunini chiqarib olishiga qarshi, mazmundan ko‘ra ifoda shakliga qaratilganligi mualliflik huquqini himoya qilish usullari yetarli emasligi ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, muayyan turdagi intellektual mulkni himoya qilish cheklovlari uni himoya qilish uchun mo‘ljallangan obyekt maqsadlari bilan belgilanadi. Umuman olganda, intellektual mulk obyektlarining ayrimlari axborotni muhofaza qilishga moslashmagan. Patent huquqi himoya qilish sharti etib ixtiro haqida axborotni e’lon qilish va shu tariqa oshkor etish zaruriyatini o‘rnatadi.[71] Axborot berish xususiyatiga ega bo‘lsa-da, savdo belgisi bo‘yicha munosabatlar axborot bilan foydalanishga mo‘ljallanmagan, balki tovarni kelib chiqishi haqida xabar berishiga qaratilgan. Shuningdek, tovar belgilariga tur sifatida maxfiyligini yoki unga asoslangan holda saqlab olish jihatiga ega emas, chunki u uzatilishga mo‘ljallangan. Shu sababli, tovar belgilariga nisbatan uning maxfiyligini qonun yoki shartnoma asosida saqlab turish huquqiy jihatdan ahamiyatga ega emas.

Shunday qilib, **intellektual mulk obyektga moslashgan va mulk huquqiga qaraganda universal emasdir**. Mulk huquqi qamrovida kengroq bo‘lib

[68] WIPO Intellectual Property Guide for Genetic Resources and Genetic Sequence Data. Integrated intellectual property management for genetic material and genetic sequence data. p.5. https://www.wipo.int/export/sites/www/tk/en/docs/ip_gr_grdataguidefin.pdf p.3

[69] Róisín Á Costello, Genetic Data and the Right to Privacy: Towards a Relational Theory of Privacy? Human Rights LawReview, 2022, 22, 1–23, - p.3

[70] O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 6-maydagi 1060-XII sondagi “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risida”gi qonuni // Oliy Kengash Axborotnomasi // 1994-y., 5-son. 136-modda.

[71] O’zbekiston Respublikasining “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to’g’risida”gi 6-mart 1994 yildagi qonuni 29.08.2002-yil 397-II-sonli taxririda // O”zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-yil, № 9, 158-moddasida.

hisoblanadi, lekin u, huquqning jismoniy obyektlari namoyon bo‘ladigan ashyolarga yo‘naltirganligi bilan bog‘liq konseptual anglashilmovchilikka ega. Shu munosabat bilan, fuqarolik huquqida, tijorat qiymatiga ega bo‘lgan va intellektual mulk standartlariga qat’iy mos kelmaydigan, kengroq doiradagi axborot obyektlari himoya qilish zarurati mavjud.

Intellektual mulk ijtimoiy manfaatlar bilan, uning obyektlarini ijtimoiy mulkiga davriy o‘tishi bilan muvozanatlashtiradi. Biroq, axborotga nisbatan mulk kvazi-huquqi uning, agarda axborot qonuniy ravishda olingan bo‘lsa, ko‘plab shaxslar, shu axborotga bo‘lgan huquqini o‘rnatuvchi, mutlaq emaslik tabiati bilan muvozanatlantirilishi mumkin. Axborotning dastlabki va keyingi egasi o‘rtasidagi munosabatlarda dastlabki mulkdorning huquqi ustunligi muqarrardir, bu boshlang‘ich huquq keyingi foydalanuvchilarning hosila huquqlariga nisbatan mutlaqdir. Shunda, bir xil darajadagi keyingi mulk egalari o‘rtasidagi munosabatlarda, ***kvazi-mutlaq*** yoki kuchsizlantirilgan mutlaq huquqlar o‘zgalardan ustun bo‘lmaslik bilan, axborotga ega bo‘lish imkonini beradi, mutlaq emas balki ***nisbiy huquq asosida***.

Intellektual mulk huquqi litsenziya shartnomasining cheklovlari bilan axborotni keyinchalik tarqatish muammosini hal qiladi. Biroq, litsenziya shartnomasi mavjud bo‘lmaganda, axborot huquqining ilg‘or amaliyoti, moddiy axborot vositalarida (elektron shaklda bo‘lmagan), “tugab bitish” yoki “birinchi sotish doktrinasi”ni qo‘llanilishini an’anaviy mualliflik huquqi obyektlari bilan cheklash hisoblanadi.[72] Bu foydalanuvchining internetda axborot tarqatishini oldindan noqonuniy deb topishni imkonini beradi. Birinchi sotish doktrinasining analogiyasi “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar” to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 25-moddasida”, va “Kompyuter dasturlari va ma’lumotlar bazalari” to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 13-moddasida,[73] bunday qayta sotishga yo‘l qo‘yiladi. Biroq elektron shakldagi axborot obyektlari uchun bu internet qaroqchiligiga yo‘l ochishi mumkin. Buning oldini olish uchun xalqaro huquqiy amaliyotga muvofiq, birinchi sotish huquqi elektron mualliflik huquqi obyektlariga nisbatan cheklashni talab qiladi.

**Dissertatsiyani uchinchi bobi, generativ dasturiy ta’minot yordamida va shu bilan birga sun’iy intellekt orqali hosil bo‘lgan obyektlarga egalik qilish** muammosini tadqiq etishga qaratilgan. Generativ dasturiy ta’minot va sun’iy intellekt davrida, insonning muhim ishtirokisiz avtonom ravishda kompyuter tomonidan hosil qilgan asarlar soni ortib bormoqda. “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonunning 8-moddasida, xususan, shaxsning individual asar yaratishga qaratilgan ijodiy faoliyatini amalga oshirmasdan, muayyan turdagi ishlab chiqarishga mo‘ljallangan texnik vositalar bilan olingan natijalar mualliflik huquqi

[72] Clark D. Asay, Kirtsaeng and the First-Sale Doctrine’s Digital Problem, 66 Stanford Law Review 17

[73] O’zbekiston Respublikasining 1994-yil 6-maydagi 1060-XII son “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to’g’risida”gi qonuni // Oliy Kengash Axborotnomasi // 1994-y., 5-son, 136 modda.

bilan himoya qilinmaydi.[74] Biroq, generativ dasturiy ta’minot yaratgan jarayoni kompyuter texnik vosita sifatida foydalangan vaziyatdan farq qiladi.

Kompyuter-hosil qilgan (CGW) ishlari uchun himoya mavjud emasligi ularni tez ravishda ommaviy axborotga aylantiradi.[75] Bu esa, ichki axborot sohasining rivojlanishiga to‘sqinlik qilgan holda, mualliflar kompyuter texnologiyalaridan foydalanishni demotivatsiya qilishga qodir. Bu muammoni ingliz huquqi tajribasi asosida CGWga zarur tayyorgarlik qilgan, va ilg‘or tadqiqotlar asosida CGW generatsiya jarayoni ustidan nazoratga ega bo‘lgan shaxsga mualliflik tayinlash orqali yechsa bo‘ladi.[76] Bu qonundagi bo‘shliq muammosini hal qilishga imkoniyat yaratadi va mualliflik huquqiga ega bo‘lmagan asarlarning paydo bo‘lishiga va ularning uchinchi shaxslar mulkiga aylanishiga yo‘l qo‘ymaydi.

**To‘rtinchi bob** “**Onlayn axborot vositalarini tartibga solish**” borasida, axborot vositachisining raqamli huquqlarni boshqarish va javobgarlik masalalari ko‘rib chiqadi. Internetdagi axborot internet xizmati ko‘rsatuvchi axborot vositachilari orqali va yuqori darajada YouTube, Vimeo, Dailymotion kabi axborot kontentini almashinuv platformalari orqali uzatiladi. Axborot oqimlari markazidagi o‘z mavqeyiga ega bo‘lib, ular axborot va mualliflik huquqi obyektlarini himoya qilgan holda, “geytkiper” vazifasini o‘tashi mumkin. Biroq, axborot vositachilari tomonidan axborot himoyasini ta’minlash uchun O’zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat” to‘g‘risidagi qonunda vositachilik mas’uliyatini aniq belgilash zarur.[77] Amaldagi qonunda elektron tijorat operatorlarining (12-modda) va elektron savdo maydonchasi operatorining (13-modda) huquq va majburiyatlari keltirilgan, va axborotga nisbatan vositachilik javobgarligi tartibga solinmagan.[78] Bu Yevropa Ittifoqi huquqining “mere conduit”,[79] yoki AQSh huquqining “safe harbour” doktrinalari modelida amalga oshirilishi mumkin.[80] Ushbu standartlar axborot vositachilarining uzatilayotgan axborot tarkibining monitoringi yoki mo‘tadil ya’ni moderatsiyasini olib bormasa va bu faoliyatdan foyda olmasa, javobgarlikdan ozod etilishi nazarda tutilgan. Shu bilan birga, axborot vositachilarining bu kabi huquqbuzarliklarga nisbatan harakatsizligining oldini olish uchun mas’ul shaxsga ma’lum bo‘lib qolgan huquqbuzarlikka nisbatan chora ko‘rishga ixtiyordan e’tibor qaratmasligi uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi ***“irodali inobatga olmaslik” to‘g‘risidagi doktrinasi***ni qo‘llash lozim.

---

[74] O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil 20-iyulda qabul qilingan “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-42-son Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2006-yil, 28-29-son, 260-modda, 25 moddasi.

[75] Wendy J. Gordon, ’On Owning Information: Intellectual Property and Restitutionary Impulse’ (1992) 78 Va. L. Rev. 179

[76] UK Copyrights, Designs and Patents Act 1988, s 9(3).

[77] O’zbekiston Respublikasining “Elektron hujjat aylanishi” tug’risidagi qonuni, 5 moddasi // O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2004-yil 20-son, 230-modda.

[78] O’zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to’g’risida”gi 2004-yil 29-aprel 613-II-sonli Qonuni, (yangi tahrir 2015-yil 22-maydagi O’RQ-385-sonli Qonuniga muvofiq. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2004-y., 20 — son, 132-modda.

[79] Article 11 of the Directive 2000/31/EC of the European Parliament and of the Council of 8 June 2000 on certain legal aspects of information society services, in particular electronic commerce, in the Internal Market (’Directive on electronic commerce) OJ 2000 L 178, p.1

[80] Digital Millennium Copyright Act Library of Congress. 1998. The Digital Millennium Copyright Act of 1998: U.S. Copyright Office summary. [Washington, D.C.]: [Copyright Office, Library of Congress].

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 365-moddasida axborot almashinuvi yo‘li bilan shartnoma tuzishga nisbatan shartnoma oferta aksept olgan paytda tuzilgan hisoblanadi.[81] Biroq, aloqa tarmoqlari orqali amalga oshirilganda, bir lahzalik aloqa vositalaridan foydalanish tufayli, accept qilishni aniqlashning boshqa tamoyili qo‘llanilishi kerak.[82] Buning sababi, qoida tariqasida, akseptni jo‘natishda uni qabul qilish bir zumda sodir bo‘ladi. Bu bitimni tuzish vaqtini accept qiluvchining axborot tizimida (serverida) qabul qilinganligi to‘g‘risidagi xabarni olish vaqti bilan bog‘lashni talab qiladi. Ushbu yondashuvning maqsadga muvofiqligi Yevropa Ittifoqining “Elektron tijorat to‘g‘risida” direktivasi,[83] va huquqiy amaliyot bilan tasdiqlangan.[84] 4-bob. O’zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat” to‘g‘risidagi qonunining 4-bobida “elektron tijoratda shartnomalar tuzish tartibi” (14-21-moddalar) bunday bu masala xal etilmagan.[85]

Ushbu yondashuv iste’molchining manfaatlarini ko‘plab tranzaksiyalarga xizmat qiluvchi elektron do‘konlar oldida himoya qiladi va ular shartnomani o‘zlari bajarishga tayyor bo‘lgunga qadar qabul qilishni qasddan e’tiborsiz qoldirish amaliyotiga ega. Sud holatida, shartnoma tuzilgan deb tan olinishi uchun qabul qilish faktini aniqlash kerak, chunki xabar bilan tanishishni tasdiqlash qiyinchilik tug‘diradi. Shunday qilib, xabarlarni tekshirish majburiyati iste’molchilar manfaatlarini himoya qilish maqsadga elektron tijoratchiga tegishli bo‘ladi. Axborot masalasiga nisbatan, buning muhim jihati, xabarni jo‘natish vaqtida qabul qilish shartnomani tuzish va bajarish jarayonini uyg‘unlashtirishga va avtomatlashtirishga yordam beradi, bu ayniqsa aloqa tarmoqlari orqali uzatiladigan axborot obyektlariga nisbatan qo‘llaniladi.

## XULOSA

Axborotning fuqarolik huquqiy maqomini belgilashda va axborotning fuqarolik muomalasini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish muammolarini tahlili asosida quyidagi tavsiya va yechimlar taklif etiladi:

### I. Fuqarolik huquqini ilmiy-nazariy asoslariga asoslashga oid xulosalar:

1. Fuqaroviy huquq obyektlarini aniqlashda keng yondashuvini inobatga olib, va fuqaroviy huquqni dispozitiv metodiga asoslanib, ommaviy axborotdan ajralgan va uni egalik qilishda yoki almashinuvida cheklanmagan axborotni fuqarolik huquqi obyekti sifatida kiritish taklif etiladi. Axborotni tarmoqlar orqali uzatilishini inobatga olib, u ko‘char mulk bo‘lib, unga huquqlar ommaviy ma’lumotni yig‘ish yoki shartnoma asosida xarid qilish orqali qo‘lga kiritilishi mumkin. Yakuniy mezon

[81] Civil Code of the Republic of Uzbekistan, December 21, 1995, Journal of the Oliy Majlis, 1996, No. 2, 1997. Page 56, Appendix No. 2, Article 189.
[82] *Brinkibon Ltd v Stahag Stahl* [1983] 2 AC 34
[83] Article 11 of the Directive 2000/31/EC of the European Parliament and of the Council of 8 June 2000 on certain legal aspects of information society services, in particular electronic commerce, in the Internal Market (’Directive on electronic commerce) OJ 2000 L 178, p.1
[84] *Entores v Miles Far East Corp* [1955] 2 QB 32
[85] O’zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to’g’risida”gi 2004-yil 29-aprel 613-II-sonli Qonuni, (yangi tahrir 2015-yil 22-maydagi O’RQ-385-sonli Qonuniga muvofiq. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2004-y., 20 — son, 132-modda.

axborotning fuqaroviy huquqiy turdagi ekanligini ta’minlaydi. Bu yondashuv fuqaroviy huquq obyektlarini umumiy xususiyatlaridan kelib chiqib maxsus axborot rejimlarini cheklovlarini, misol uchun axborot resurs va sistemalar (jamlangan), EXM uchun programmalar (operatsiya bajargani), ma’lumot bazalari (kompilyatsiya), va mualliflik huquqini (shakl va hajm) inobatga olgan holda taklif etiladi, va uni qoidalarga shu obyektlarini ham qamrab olishi mumkin deb topiladi.

2. Ilk mulkdorning xususiy-huquqiy axborotga, to‘liq huquqlarini mavjudligini hisobga olgan holda axborotga mulk huquqini tan olish. Keyinki axborotga *INS v Associated Press* qarori asosida, kvazi-mulk huquqini tan olish. Lokk nazariyasi asosida sarflangan mehnat va paydo bo‘lgan axborot obyektlari keyslar asosida sarflangan xarajat va investitsiya virtual koinotda elektron axborotga egalik huquqini beruvchi mezon sifatida qo‘llash.

3. Axborot tahrirlangan bo‘lsa ham himoya qilinishi beruvchi, shakli bo‘yicha emas (mualliflik huquqi kabi), balki mazmuni bo‘yicha bo‘lgan axborot kontenti ta’rifini berish taklif etiladi. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunida axborot kontentini ta’rifini “uning mazmuni va bunday axborotdan foydalanish yoki uning ekvivalenti bo‘yicha uzatishga mo‘ljallangan axborot” deb ta’rif berish taklif etiladi. Bundan tashqari bu originalligi yetarli bo‘lmagan axborot obyektlarni himoya qilishga imkon yaratadi, masalan media epizodlar, veb-sayt kontenti va hokazo;

4. Axborotning asl va keyingi egasi huquqlarini asl mulkdorga mulk huquqi, keyingi egalik qiluvchilarga esa faqat foydalanish huquqini berish orqali farqlash taklif etiladi (agar obyektga nisbatan huquq butunlay o‘tkazib berilmasa, yoki shartnomada boshqacha shart nazarda tutilmagan bo‘lmasa);

5. Litsenziya shartnomasini asl va keyingi axborot egasining huquqlarini farqlash imkonini beruvchi axborotni uzatishning asosiy usuli sifatida qabul qilish, garchi oldi-sotdi shartnomasi keyingi egasiga asl egasi bilan bir xil huquqlarni beradi, va bu uning foydalanuvchilari tomonidan axborotni ruxsatsiz tarqatishga olib kelishi mumkin;

6. Axborotning mutlaq maxfiylikdan ko‘ra, nisbiy maxfiylik asosida muhofaza qilishga imkon beradigan ingliz “ishonch huquqi” modeliga binoan, maxfiylikni (kontekstga yo‘naltirilgan himoya) nazarda tutilgan holatlarda uzatiladigan axborot himoyalanishi kerak bo‘lgan taqdirda, axborot uzatish kontekstiga asoslangan maxfiylik, “ishonch huquqi” modeli bo‘yicha olingan axborotga huquq paydo bo‘lishi uchun asos sifatida tan olinishi taklif etiladi. Fuqarolik huquqida himoyalangan axborotga nisbatan bunday moslashuvchan yondashuv O‘zbekiston Respublikasida axborot produktlarini yaratishga qaratilgan tadbirkorlik rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunga dasturiy ta’minot, ma’lumotlar bazalari va shu kabi o‘z huquqiy asoslariga ega bo‘lgan maxsus axborot turlarining huquqiy rejimlarini cheklanganligini inobatga olgan holda zarur bo‘lib turadi. Himoyalangan axborotni ochiq savdoda ishlatishdagi cheklovlari tufayli va “muqarrar ravishda oshkor etilishi” haqidagi doktrinasini inobatga olgan holda, axborotni mutlaqo tijorat siri rejimi bilan cheklanmasdan himoya qilish taklif etiladi;

7. Fuqarolik huquqida “tovar”ning umumiy ta’rifini berish orqali axborotning fuqarolik muomalasini ta’minlash taklif etiladi. Yevropa Ittifoqi qonunining modeliga ko‘ra tovar qiymatda baholanishi va tijorat bitimining predmeti bo‘la olishi standartlari asosida ta’riflanadi. Fuqarolik huquqining fuqaroviy huquq obyekti kategoriyasini tovar ta’rifi bilan almashtirish taklif etiladi, aniq standartlarini asosida, va bu har bir fuqarolik huquqi obyektini uning tizimidagi tartibiga solish zaruriyatini bartaraf etishi mumkin;

